



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<a href="#">Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi</a>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<a href="#">Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</a>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<a href="#">Mahmudova Shoira Shavkat qizi</a>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<a href="#">Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</a>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<a href="#">Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</a>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<a href="#">Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<a href="#">Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</a>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<a href="#">G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</a>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<a href="#">Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</a>	

# O'QUVCHILARNING YOZUV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Yozma nutqni baholashda qo'llaniladigan lingvistik, kommunikativ hamda akademik yondashuvlar o'rganilib, ularning samaradorligi qiyosiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy rubrika asosidagi baholash tizimlarining afzalliklari hamda kamchiliklari ilmiy asosda tavsiflangan. Tadqiqot natijalari kompleks va aniq mezonlarga asoslangan baholash tizimi o'quvchilarning yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** yozuv kompetensiyasi, baholash mezonlari, rubrika, akademik yozuv, kommunikativ kompetensiya, pedagogik baholash.

**Abstract:** The theoretical and practical aspects of improving assessment criteria for students' writing competence are analyzed. Linguistic, communicative, and academic approaches applied in the assessment of written speech are examined, and their effectiveness is comparatively evaluated. In addition, the advantages and disadvantages of traditional and modern rubric-based assessment systems are scientifically described. The research findings indicate that an assessment system based on comprehensive and clearly defined criteria serves as an important pedagogical factor in the development of students' writing competence.

**Key words:** writing competence, assessment criteria, rubric, academic writing, communicative competence, pedagogical assessment.

**Аннотация:** Проанализированы теоретические и практические аспекты совершенствования критериев оценивания письменной компетенции учащихся. Рассмотрены лингвистические, коммуникативные и академические подходы к оцениванию письменной речи, а также проведён сравнительный анализ их эффективности. Кроме того, научно охарактеризованы преимущества и недостатки традиционных и современных систем оценивания на основе рубрик. Результаты исследования показывают, что система оценивания, основанная на комплексных и чётко определённых критериях, является важным педагогическим фактором развития письменной компетенции учащихся.

**Ключевые слова:** письменная компетенция, критерии оценивания, рубрика, академическое письмо, коммуникативная компетенция, педагогическое оценивание.

## KIRISH

Yozuv kompetensiyasi til o'qitish jarayonining eng murakkab, ko'p bosqichli va kognitiv jihatdan talabchan ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat grammatik bilimlar, balki mantiqiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, uni tartibga solish va akademik uslubda ifodalash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar yozma ishlarni bajarishda faqat grammatik to'g'rilikka e'tibor qaratadilar, biroq matnning mazmuniy izchilligi, strukturasi va kommunikativ maqsadini yetarlicha hisobga olmaydilar. Bu esa yozuv kompetensiyasining to'liq shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli, yozuvni baholash mezonlarini takomillashtirish, uni faqat xatolarni aniqlash emas, balki rivojlantiruvchi vosita sifatida qo'llash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yozuvni baholash masalasi zamonaviy metodika va psixolingvistika sohalarida keng o'rganilgan. Xususan, Hyland yozuvni baholashda to'rtta asosiy komponentni ajratadi: mazmun (content), tuzilma (organization), leksik boylik (vocabulary) va grammatik aniqlik (accuracy). Uning fikricha, baholash faqat xatolarni aniqlash emas, balki yozuv jarayonini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak [5; 9-b].

Weigle esa yozuvni baholashda rubrika tizimining ahamiyatini ta'kidlab, uning obyektivlik va shaffoflikni oshirishini qayd etadi [7; 80-b].

Brown kommunikativ yondashuvga asoslangan baholashni qo'llab-quvvatlab, yozuvning real hayotiy vaziyatga mosligini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi [2; 29-b].

Shuningdek, Bachman til kompetensiyasini baholashda integrativ yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [1; 55-b].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv va eksperiment.

Eksperiment jarayonida o'quvchilarning yozma ishlari ikki xil tizim asosida baholandi:

- an'anaviy baholash tizimi – grammatik xatolar va imlo asosida;
- rubrika asosidagi kompleks baholash tizimi – mazmun, tuzilma, leksika va grammatikani o'z ichiga olgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yozuv kompetensiyasining baholash mezonlari zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini obyektiv va kompleks baholashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Har bir yozma ish quyidagi ballik tizim asosida baholandi (1-jadval).

1-jadval: Akademik yozuv kompetensiyasini baholash mezonlari

Yozuv komponentlari	Ball oralig'i	Mezonlar tavsifi
<b>Vazifasini bajarish darajasi (Task achievement)</b>	0–20 ball	0–5 – vazifa talablari bajarilmagan yoki mavzudan chetga chiqilgan; asosiy savolga javob berilmagan; mazmun juda cheklangan yoki yetarlicha yoritilmagan; dalillar va izohlar mavjud emas. 6–10 – vazifa qisman bajarilgan; savolga javob berilgan, biroq ayrim jihatlar to'liq ochilmagan; fikrlar yuzaki yoritilgan; dalillash yetarli darajada rivojlantirilmagan. 11–15 – vazifa asosan bajarilgan; barcha asosiy jihatlar javob berilgan; fikrlar mantiqan rivojlantirilgan; dalillar va misollar mavjud, biroq ba'zi o'rinlarda chuqurlik yetishmaydi. 16–20 – vazifa to'liq va mukammal bajarilgan; savolning barcha jihatlar chuqur va aniq yoritilgan; fikrlar izchil va asosli dalillar bilan mustahkamlangan; mazmun maqsadga to'liq muvofiq.
<b>Mazmuniy bog'lanish (coherence and cohesion)</b>	0–20 ball	0–5 – matn deyarli bog'lanmagan; gaplar o'zaro mantiqan aloqasiz; bog'lovchi vositalar ishlatilmagan yoki noto'g'ri qo'llangan; paragraf tuzilmasi shakllanmagan; matnni tushunish qiyin. 6–10 – ayrim jumlar o'zaro bog'langan, biroq g'oya oqimi notekis; bog'lovchi vositalar cheklangan yoki ba'zan noto'g'ri ishlatilgan; paragraf tuzilmasi mavjud, ammo ravonlik yetarli emas. 11–15 – matn asosan mantiqan bog'langan; bog'lovchi vositalar to'g'ri qo'llangan; paragraf tuzilmasi aniq; fikrlar izchil va ravon bayon qilingan, o'quvchi matnni tushunishda qiyinchilik sezmaydi. 16–20 – matn mukammal darajada bog'langan; barcha fikrlar mantiqan va mazmunan uyg'un; bog'lovchi vositalar samarali qo'llangan; g'oya oqimi izchil va yuqori darajada ravon, matn o'quvchi uchun to'liq tushunarli.
<b>Lug'at boyligi (Lexical resource)</b>	0–20 ball	0–5 – lug'at boyligi juda cheklangan bo'lib, ifoda aniq va ravon emas. 6–10 – asosiy so'zlarni biladi, lekin ularni noto'g'ri va takroriy tarzda ishlatadi. 11–15 – lug'at boyligi yetarli bo'lib, yozuvda kichik leksik xatolar uchraydi. 16–20 – lug'at boyligi yuqori, so'zlarni kontekstga mos va aniq tanlaydi.
<b>Grammatik aniqlik (grammatical range and accuracy)</b>	0–20 ball	0–5 – grammatik xatolar juda ko'p, matndagi jumalarda grammatik me'yorlarga rioya qilinmagan. 6–10 – matnda turli grammatik xatolar mavjud bo'lib, ayniqsa asosiy zamonlar va gap tuzilmalari noto'g'ri qo'llanilgan. 11–15 – matnda uchraydigan ayrim kichik xatolarga qaramay, asosiy grammatik qoidalar tushunilganligi aniq ko'rinadi. 16–20 – matn grammatik jihatdan to'g'ri bo'lib, faqat kam uchraydigan kichik xatolar mavjud.

<b>Imloviy (spelling)</b>	0–20 ball	0–5 – matnda juda ko'p imloviy xatolar mavjud; so'zlarning noto'g'ri yozilishi mazmuni tushunishni qiyinlashtiradi; tinish belgilaridan foydalanish noto'g'ri yoki tizimsiz. 6–10 – imloviy xatolar sezilarli darajada uchraydi; ayrim xatolar matni tushunishga qisman ta'sir qiladi; tinish belgilaridan foydalanishda kamchiliklar mavjud. 11–15 – matnda kam sonli imloviy xatolar mavjud; xatolar umumiy tushunishga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi; tinish belgilaridan asosan to'g'ri foydalanilgan. 16–20 – imloviy jihatdan deyarli xatosiz; so'zlar to'g'ri yozilgan; tinish belgilaridan to'g'ri va me'yoriy foydalanilgan; matn o'quvchi uchun to'liq tushunarli.
---------------------------	-----------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rubrika asosida baholangan guruhda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuza-tildi:

- o'quvchilarning yozuvdagi mantiqiy izchilligi oshdi;
- akademik uslubdan foydalanish darajasi yaxshilandi;
- leksik boylik kengaydi;
- grammatik xatolar kamaydi;
- o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmasi rivojlandi.

An'anaviy baholash tizimida esa o'quvchilar ko'proq natijaga (ballga) yo'naltirilgan bo'lib, jarayonni tahlil qilish ko'nikmasi past darajada qoldi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda faqat yakuniy natijani baholash yetarli emas. Jarayonni ham baholash muhim ahamiyatga ega. Rubrika asosidagi baholash tizimi o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- yozuvdagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash;
- akademik yozuv standartlarini tushunish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

Biroq ushbu tizimni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud:

- o'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik talab etiladi;
- baholashga ko'proq vaqt sarflanadi;
- o'quvchilarga mezonlarni tushuntirish bosqichi murakkab bo'lishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rubrika asosidagi kompleks baholash tizimi o'quvchilarning yozuv ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Bunday yondashuv:

- baholashni obyektivlashtiradi;
- o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi;
- akademik yozuv sifatini oshiradi;
- mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Yozuv kompetensiyasining baholash mezonlari zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning akademik va kommunikativ yozuv ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy baholash tizimi asosan grammatik aniqlik va imlo xatolarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, u yozuv jarayonining murakkab kognitiv va kommunikativ jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli, yozuv kompetensiyasini baholashda zamonaviy yondashuvlar, xususan, rubrika asosidagi kompleks baholash tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompleks baholash mezonlari o'quvchilarning yozma nutqini nafaqat til jihatidan, balki mazmuniy izchillik, mantiqiy tuzilma, leksik boylik va kommunikativ maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa baholash jarayonini yanada obyektivlashtiradi va o'quvchilarga o'z yozuvlaridagi kuchli hamda zaif tomonlarni aniq ko'rish imkonini yaratadi. Natijada, ular o'z xatolarini mustaqil tahlil qilish va bartaraf etish ko'nikmasini rivojlantiradilar.

Shuningdek, rubrika asosidagi baholash tizimi o'quvchilarda refleksiv fikrlashni shakllantirib, ularning yozuvga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Bu yondashuv o'qituvchiga esa baholash jarayonida shaffoflik va izchil-



likni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, yozuv jarayonining bosqichma-bosqich – rejalashtirish, yozish va tahrirlash asosida amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Yozuv kompetensiyasining baholash mezonlarini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni akademik yozuv madaniyatiga yo'naltirishda muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlardan voz kechmagan holda, ularni zamonaviy, kompleks va kommunikativ yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bachman L. F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 397 p.
2. Brown H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. – Pearson Education, 2004. – 340 p.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London–New York: Longman, 2009. – 448 p.
4. Hoshimov O'. H., Yoqubov I. Y. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 301 b.
5. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge Language Education, 2003. – 17 p.
6. Tribble C. Writing. – Oxford: OUP, 1996. – 173 p.
7. Weigle S. C. Assessing Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 282 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.